

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**



Nocturne No. 20 in C Sharp Minor, Op. posth
Frédéric François Chopin



FRIDERIK SHOPEN
(1810-1849)

NOYABR
№46



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz
www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
14-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-14**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-14**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

**1. Fayzullayeva Iqbol Boybo'riyevna, Terkashev Sirojiddin Abdusamatovich,
Jo'rayeva Gulnora Safarovna**
TA'LIMDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING IJODIY
QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING BA'ZI MASALALARI7

2. Xalilova Gulzoda Abdusalomovna
NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI TUZISH VA TASVIRLASH.....9



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

ТА'ЛИМДА БО'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING BA'ZI MASALALARI

Fayzullayeva Iqbol Boybo'riyevna

Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi
Prezident ta'lim muassasalari agentligi
tizimidagi 1-sonli ixtisoslashgan maktabining tasviriy
san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Terkashev Sirojiddin Abdusamatovich

Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi
84-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Jo'rayeva Gulnora Safarovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar
12-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabining tasviriy san'at va
chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola pedagogika oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qadimda faoliyat ko'rsatgan buyuk san'atkorlarning badiiy ijod namunalarini o'rganib taxlil qilish, san'at asarlarini yaratish jarayonlari bilan tanishtirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, badiiy ijod, tasviriy san'at o'qitish metodikasi.

Jahonda tasviriy san'atni o'qitilishiga dastlabki ma'lumotlar qadimgi Misr va Yunonistonda eramizdan avvalgi III asrlarga doir materiallar mavjud. Qadimgi Misrda tog' qoyalariga o'yib ishlangan haykaliar, shuningdek, rangtasvir asarlari o'zining yuksak badiiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Kishilar o'z tajribalarini keyingi avlodlarga turli yo'llar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o'tkazib kelganlar. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi. Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan.

Qadimda barakali ijod qilib, o'zlaridan buyuk tasviriy san'at asarlarini meros qilib qoldirgan mashhur ijodkorlarning tasviriy san'at sohasida erishgan tajribalari bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida, xususan turli badiiy maktablarda yoshlarni tasviriy san'atdan saboq berishda asos hisoblanadi. Shuning uchun tasviriy san'atni o'rganishni xohlovchi va tasviriy san'at olamiga endigina kirib kelayotgan bo'lajak rassom eng avval qadimda ijod qilgan rassomlarning klassik asarlarini o'rganib taxlil qilishi va olgan bilimlari hamda ko'nikmalari asosida o'z shaxsiy ijodiy yo'lini tanlab chiqishi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishi kerak.

Badiiy akademik maktab yo'nalishida o'quvchilarni faqatgina bilim va ko'nikmalar bilangina qurollantirish emas, balki ijodiy faoliyatda ham ishtirok ettirish ko'zda tutiladi. Ba'zi endigina boshlovchi rassomlar qonun, qoidalarga amal qilmaydilar va maktab o'zining an'anaviy ko'rsatmalari bilan ularning individualligi rivojlanishiga halaqit beradi, deb o'ylab darhol murakkab ijodiy masalalarni hal etishga urinadilar.

Maktab esa o'quv muassasasi sifatida o'zining dars o'tish ilmiy usullari bilan ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga hech qachon halaqit qilmagan, aksincha, u yosh rassomlar rivojlanishi, ta'lim olishi va shakllanishiga yordam bergan. Tasviriy san'atning hamma turlari uchun asosiy qoida bo'lgan rasmlarni chizishni o'rganib olishda maktab ayniqsa, zarur hisoblanadi. Shuning uchun hech kim maktabni o'z usullari bilan o'zboshimchalik qilib, rassomlar studiyasiga aylantirishga haqqi yo'q.



Maktabga qarshi bo‘lganlar - odatda yosh, boshlovchi rassomlar orasida ba’zan shunday is’tedod egalari uchraydiki, maktab ularni rivojlanishiga halaqit beradi, havoskor rassomlar ko‘rgazmalarida juda ham mazmunli asarlar uchraydi, ularga rassomlar maktabda o‘qimay ham erishganlar, deyilar. Ta’lim psixologiya va pedagogikasi ijodiy qobiliyatlar va ijodiy faollik rivojlanishi o‘quv jarayonida katta natijalar berishi mumkin deb, hisoblaydi. Demak, ta’lim jarayoni, ta’lim faoliyati maktabning diqqat markazida bo‘lishi kerak. «Erkin ijod» usuli tarafdorlari, sodda bolalik rasmlari shunisi bilan ajoyibki u dunyoni o‘ziga qabul qilishini ifoda etadi, tasviriy san’atda esa bola o‘zining ijodiy tashabbusini qizg‘in namoyon etadi deb hisoblaydilar. Rasm chizish jarayonida bola ijodiy yaratuvchilikdan zavqlanadi va biz buni unda butun hayoti davomida saqlab qolishimiz kerak. «Erkin tarbiya» tarafdorlari umumta’lim maktablari rassomlarni tarbiyalamaydi, deb aytadilar va bolalarni realistik san’atning hamma qonun va qoidalariga o‘qitish kerak emas deb hisoblaydilar. Boshlovchi rassom tasvirni ko‘rishdan oldin har bir bosqichda avvaliga qog‘ozga tushirmoqchi bo‘lgan tasvirning hayoliy tasvirini yaratib oladi: predmet shakli, o‘ziga xoslik xususiyatlari haqida tasavvuri hali aniq bo‘lmaganida, u umumiy sxemali shakl bilan cheklanadi, shundan keyin, pedagog tushuntirgan narsa haqida kuzatish olib borish va qayta tushunib olgan sari u ko‘rinayotgan naturani haqiqiy va emotsional – mazmunli ifoda etilishiga yaqinlashib boradi. Bugungi kunda ba’zi pedagoglar tasvirlarda naurani ko‘rish va taxlil qilishga e’tibor qaratmaydilar. Bunday usulni qo‘llamaydilar, uning badiiy ijodga ta’sir etishida “sxematizm” va qonun qoidalar badiiy rivojlanishga to’sqinlik qilishini sabab qilib ko‘rsatadilar. Akademik tasvirlashga qarshi chiqib, murakkab shaklni soddalashtirish, sxemalarga, qoidalariga qarshi chiqadilar, tasvirlashda metodik bosqichlarda tasvirlash bu trassomni ijodiy rivojlanishga to’sqinlik qiladi deb hisoblaydilar.

Ma’lumki hamma o‘quvchilar akademik rasm chizishning bir xil qonun va qoidalarini o‘rganishlariga qaramay, ularning har biri naturani o‘z tasavvuriga ko‘ra o‘zicha qabul qiladi va shuning uchun tasvirda to‘la bir xillik bo‘lishi mumkin emas. Rassom shu bilan birga naturadan nusha oluvchisifatida emas, balki uni qayta quruvchi sifatida ishtirok etadi. Ko‘rib turgan obrazni tasvirga o‘tkazish jarayoni ijodiy fikrlashsiz mumkin emas: bunda rassom taqqoslashga, solishtirishga, umumlashtirish, mulohaza qilishiga majburdir. O‘zining ko‘p asrlik davrida badiiy rassomchilik maktablari yosh rassomlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish sohasida ulkan pedagogik tajriba to‘plagan. Bu o‘tmishdagi rassom-pedagoglarning tajribalari diqqat bilan o‘rganish va umumlashtirishni talab etadi, ularning asosida biz tasvir chizish akademik mashg‘ulotlarida ijodiy qobiliyatini rivojlantirish yangi ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqishga kirishishimiz mumkin bo‘ladi. Qadimgi rassomlarning yutuqlari, tajribalarini e’tiborga olmaslik, badiiy maktabning yo‘q bo‘lishiga, san’atning "nodon"lashishiga olib keladi. nazariyot va amaliyotning tabiiy ravishda birligi yosh rassomning faol rivojlanishiga, uning ijodiy qobiliyati o‘sib borishiga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Uyg‘onish davri rassomlari "qo‘l bilan emas, balki bosh bilan chizamiz" - deb aytganlar. Ular bu fikrga tajribaga tayanish, bilish va tasvirlash, tabiatni intuitiv tushunish asosida kelganlar. Bugungi kunda psixologiya fani insonning fikrlash faoliyati tabiatini ochib bermoqda. Boshlovchi rassomning inson bosh shaklini tasvirlashi uchun plastik anatomiya yordam beradi. Har gal o‘quv topshiriqlarini bajarishida boshlovchi rassom yangilikni bilib oladi, boshqacha o‘rganadi, odamlar yuziga professional nazar bilan qaraydi, portretni tasvirlash san’atida yangi ko‘nikmalarni egallaydi, boshqacha aytganda turli maqsadlar faol ijodiy faoliyatga kirib keladi. o‘quv tasvirini chizishda birinchi asosiy metodik ko‘rsatmani pedagog berishi kerak.

Keyinchalik esa. rassomning ijodiy faolligi rivojlanib, unda o‘z tasvirlash usuli paydo bo‘ladi. Bunga esa talabalar tajribali pedagog yordamida erishishlari mumkin, pedagog esa buning uchun umumiy ko‘rsatmalardan individual ko‘rsatmalarga o‘tishi kerak va har bir talaba qobiliyatini hisobga olishi kerak.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Botir Boltabayevich Baymetov, Laylo Mirsoatova Oliy pyedagogik ta’limda inson qomatini tasvirlashning nazariyasi va metodikasi Science and education journal. 2020/8. Стр. 467-476.
3. Azimova. Natyurmort tuzish va tasvirlash. – Toshkent: O‘qituvchi.
4. B. Boymetov. Qalamtasvir asoslarini o‘rganish. – Toshkent. 1994-yil.



NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI TUZISH VA TASVIRLASH

Xalilova Gulzoda Abdusalomovna
Namangan viloyati Uchqo'rgon tumani
41-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada natyurmort kompozitsiyasi haqida, uni tuzish va tasvirlash bosqichlari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: natyurmort, rasm, jonsiz buyum, janr, tasvir, kompozitsiya, shakl, jism, qog'oz, perspektiv, rang, tahlil.

Natyurmort (frans. nature morte — jonsiz tabiat) — tasviriy san'at janri. Insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muxitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi; shuningdek, shu janrda yaratilgan rassomlik asari ham Natyurmort deb ataladi. Asosan, dastgoxli rassomlik (rangtasvir va grafika)da, qisman haykaltaroshlik (asosan, relyef)da ishlanadi. Natyurmortda «jonsiz buyumlar» (Masalan, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalar)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi baliq, vazadagi gul va boshqalar) ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan Natyurmortga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan Natyurmortda namoyon bo'ladi. Natyurmortda tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to'ldiradigan) buyumlar o'z egasining fe'l-atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko'rsatishga qaratilgan. Quyida natyurmort chizish jarayonini ko'rib chiqamiz. Natyurmortni turli tomonlardan kuzatib yorug'-soya munosabatlarini hisobga olgan holda, shakl ko'rinishining eng ma'qul joyi tanlanadi.

1-bosqich. Tasvirning qog'ozda kompozitsion joylashuvi. Ma'lum formatdagi qog'ozda natyurmort shunday joylashtirilishi kerakki, unda qog'ozning butun yuzasi naturani tasvirlashda faol ishtirok etsin. Agar tasvirlanayotgan jism (yoki jismlar guruhi) vertikal yo'nalish bo'yicha cho'zilgan bo'lsa, tabiiyki qog'ozning uzun tarafini tik holatda joylashtirish kerak. Tasvirlanayotgan jismlar o'lchami to'g'ri tanlanishi lozim: tasvir juda kichik yoki juda katta bo'lmasligi, hamda u bir burchakka taqalib qolmasligi kerak. Chizilayotgan rasm qog'ozning taxminan o'rtasida joylashtirilishi kerak. Har bir alohida holat uchun, qog'ozning hajmini hamda tasvirlanayotgan jismlar va umumiy tasvir maydonining o'zaro munosabatini hisobga olgan holda, alohida kompozitsiya tanlashni talab etiladi.

O'quv mashg'ulotlarida kompozitsiya ko'rish maydonidagi tasvir asosida tanlanadi, qog'oz formati aniqlanib, unga tasvir joylashtiriladi. Tasvir kompozitsiyasini aniqlash (ayniqsa natyurmort chizish jarayonida) - uning joylashuvini, o'lchamlari va fonini to'g'ri belgilashdan iborat.

2-bosqich. Shaklning konstruktiv tahlili va perspektiv tuzilishi. Natyurmortdagi jismlar tasvirini ishlash chog'ida, rassom o'z joylashgan o'rniga ko'ra, ularning shakli, nisbatlari va perspektiv o'zgarishidan kelib chiqishi kerak. Dastlab jismlarning umumiy ko'rinishi yengil chizgilar orqali belgilab olinadi, chegara chiziqlari chiziladi va ushbu chiziqlar doirasida barcha jismlar tasvirlanadi. Jismlar joylashgan tekislik yuzasi ko'rsatiladi. Shundan so'ng bir-biriga bog'liq ravishda barcha jismlar alohida belgilab chiqiladi. Har bir jismning o'lchami, nisbati va joylashgan o'rni aniqlanadi. Jismlar nisbatini aniqlash chog'ida, albatta, solishtirish uchun o'lchov birligini tanlash lozim. Balandlikni solishtirish uchun o'rta yoki kichik jismning o'lchamini olish qulay hisoblanadi.

Jismlar tarxini doimiy tarzda oydinlashtirish orqali jismlarning perspektiv ko'rinishi sinchiklab kuzatiladi: jismlar bir-birini to'smasligi va ular o'zaro kesishmasligi lozim. Jismlar orasidagi masofa va gorizontal yuzaga nisbatan jismlar asosining joylashuvi aniqlanadi. Buning uchun natyurmortni yaqin masofadan, yon tarafdin, orqa tarafdin, tepasidan kuzatish va jismlarning o'zaro joylashuvini aniqlash kerak. Har bir jismni to'g'ri tasvirlash uchun, ularni proyeksiyalash, ya'ni chiziqli konstruktiv yoki shishasimon jism sifatida tasavvur etib chizish kerak. Jismlarning perspektiv ko'rinishi va shaklining to'g'ri ishlanayotganligini kuzatib, uzluksiz ravishda jismlar nisbati aniqlab boriladi. Bunda avvalo katta qismlarning, so'ngra esa kichikroq - yordamchi



qismlarning o‘zaro munosabati oydinlashtiriladi.

3-bosqich. Yorug‘-soya munosabatlari yordamida jismlarning hajmini tasvirlash. Jismlarning perspektiv tasvirini ishlash davomida, ularning hajmi, joylashuvi va tushayotgan yorug‘lik darajasini ko‘rsata olish muhimdir. Bunga turli tus va qalam bosimidan foydalanish orqali erishiladi. Naturaning tus munosabati to‘q, o‘rta va yorqin tuslarning rasmdagi o‘zaro munosabatini, ularning tahlilini ko‘zda tutadi. Bir seansli o‘quv rasmlarda tus munosabatlari yoritilgan va soyadagi yuzalarni tasvirlash, hamda ushbu yuzalarning chegaralarini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Rasmda avvalo chegaralar, soya va yorug‘lik yengil tuslarda belgilab olinadi. Jismning yoritilmagan yuzasi konturining atrofiga boshqa yuzalarning (devor, mato v.b) aksi tushadi va bu joyga jismning o‘z soyasiga nisbatan yorqinroq tus beriladi. Bunda jismlar nisbatlari rasm va naturani yorqin va to‘q tuslar munosabatini solishtirish orqali aniqlanadi. Yorug‘ va soya yordamida tasvirga tabiiylik bahsh etadi.

4-bosqich. Rasmni umumiyashtirish. Ushbu bosqichda rasm deyarli tugatiladi va tasvirni natura bilan solishtirish, keraksiz detallarni olib tashlash, birinchi va ikkinchi darajali qismlarni umumiyashtirish va ishdan umumiy taassurot olish kerak. Yosh rassom uchun natyurmort chizish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Naturadan natyurmort chizish realistik rasmdagi jismlar joylashuvini to‘liq ochib berish, e‘tiborni asosan perspektiv tasvirga qaratish, hamda chiziqli-konstruktiv tasvir bajarishning qonun-qoidalarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shularni aytish kerakki, natyurmort ustida ish olib borish o‘quvchilarda yangi ijodiy qirralarining namoyon bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Mavzuni mustahkamlash uchun esa ular uyda turli shakllardan iborat buyumlar, meva va sabzavotlarning alohida tasvirlarini ishlashlari mavzuni mustahkamlashda muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baymetov B. B., Muratov K. K. Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher //Solid State Technology. – 2020.
2. Байметов Б. Б. История развития изобразительного искусства Узбекистана //Наука, образование и культура. – 2016.
3. Ростовцев Н. Н. Академический рисунок. – Рипол Классик, 1973.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 14-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000